*O‘zDJTU rektorining*
*07/10/2021dagi*
*416-sonli buyrug‘iga*
*1-ilova*

# O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son hamda “Respublika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 9-sentabrdagi 563-son qarorlarida belgilangan vazifalami amalga oshirish tartibi va yo‘nalishlarini belgilab beradi.

## I. Umumiy qoidalar

2. Ushbu Nizom O‘zbekiston davlat jahon tillarini universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) talabalar bilan ishlashning yangi tizimi - tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi, tyutorlikning maqsad-vazifalari, huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

3. **Tyutor -** bu oliy ta’lim muassasasida faoliyat yuritadigan, tegishli malaka talablariga javob beradigan, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan xodim bo‘lib, o‘ziga biriktirilgan guruh talabalarining ta’lim olishlarida, shuningdek, darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlarida ko‘maklashadi, ularni insonparvarlik, adolat, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, beshta muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan to‘garak va klublarga jalb etish, ta’lim olish jarayonida yuzaga keladigan barcha masala va muammoni o‘rnatilgan tartibda bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni olib boradi.

Tyutor talabalar turar joylarida, ijaradagi va xususiy xonadonlarda yashovchi talabalarning yashash manzillariga muntazam borib, u yerda yaratilgan sharoitlar va talabalarning muammolarini o‘rganib borish va ularni yaxshilash choralarini ko‘rish faoliyati bilan shug‘ullanadi.

Tyutor o‘z faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari, Universitet ichki tartib va odob-axloq qoidalari hamda ushbu nizomga rioya etadi.

4. Quyidagi holatlarda tyutorlik faoliyatini amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi:

ta’lim muassasasi tomonidan tyutor etib belgilanmagan shaxslar tomonidan tyutorlik faoliyatini amalga oshirish;

belgilangan me’yor va talablarga javob bermaydigan, bilim va tafakkur doirasi tyutorlik kasbiga munosib bo‘lmagan mutaxassislarni tyutorlik lavozimiga tayinlash;

5. Ta’lim muassasalarida tyutorlar faoliyatiga umumiy rahbarlikni Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektor (o‘rinbosar) amalga oshiradi.

## II bob. Tyutorlik faoliyatining maqsad va vazifalari

6. Quyidagilar tyutorlik faoliyatining asosiy maqsadlari hisoblanadi:

- ta’lim va tarbiya jarayoni uyg‘unligini samarali tashkil etish;
- ta’lim muassasasi va talabalar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;
- talabalarga ijtimoiy-ma’naviy va psixologik yordam ko‘rsatgan holda o‘zini yanada yaxshiroq anglash, o‘qish va hayotda to‘g‘ri qaror qabul qilish, tanlagan kasbiga muhabbatni oshirish;
- ta’lim muassasalaridagi ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, o‘quvchilar davomatini yaxshilash bilan bog‘liq masalalarda Jamoat kengashi va mahallaning o‘rnini kuchaytirish.
- talabalarning dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirib borishini tahlil qilish va darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlarini ta’minlash;
- ularning ijtimoiy (oilaviy) holatidan doimiy xabardor bo‘lishdan iborat.

7. Quyidagilar tyutorlik faoliyatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

**a) ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy-tarbiya sohasida:**

muntazam ravishda talabalarning ota-onasi bilan davra suhbatlari, uchrashuvlar tashkil etish hamda ota-onalatning farzandlar tarbiyasidagi o‘rni, majburiyati, mas’uliyati va farzandlar bilan o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashga ko‘maklashish, ularning ta’lim tizimidagi islohotlar haqida ma’lumotga ega bo‘lishlarini ta’minlash;

ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiya sifatini o‘rganish va ularni yanada takomillashtirishga oid tadbirlarni amalga oshirish;

qonunchilik talablaridan kelib chiqib ta’lim muassasasiga yaqin hududlarda alkogolli va tamaki mahsulotlari sotilishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha ta’lim muassasasi rahbariyatiga takliflar kiritish;

oila, mahalla, universitet hamkorligini yanada kuchaytirishga doir uslubiy asoslarni yaratish;

“Birinchi kurs maktabi” tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etishda faol ishtirok etish;

muassasasining odob-axloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi (siyosati), Universitetning ichki mehnat tartibi qoidalari hamda boshqa lokal hujjatlar bilan o‘ziga biriktirilgan talabalarni tanishtirish;

psixolog bilan birgalikda talabalarning ijtimoiy-psixologik portretini

shakllantirish;

talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar va milliy qonunchiligimizga hurmat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash;

talabalarni boy tarixiy, milliy va diniy an'analarimizga yot bo'lgan illatlar, ya'ni terrorizm, separatizm, prozelitizm, diniy aqidaparastlik, missionerlik, "ommaviy madaniyat", narkomaniya, uyushgan jinoyatchilik va boshqa illatlarga murosasizlik hamda ularga qarshi kurash ruhida tarbiyalash;

talabalarning qonuniy manfaatini himoya qilish, yaratilayotgan sharoitlardan foydalanish imkoniyatini yetkazish, ularning muammolarini bartaraf etishda bayonnomalarni shakllantirib, amaliy yordam ko'rsatish hamda o'qishi, ilm-fan bilan shug'ullanishi, yashashi va dam olishi uchun tegishli choralarni ko'rib borish;

talabalarni darsdan bo'sh vaqtlarda besh muhim tashabbus doirasidagi klub, to'garak va tanlovlarga jalb qilish, ularning ta'lim muassasasi hayotidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy tadbirlardagi ishtirokini ta'minlash;

nogironligi bo'lgan, yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan va kam ta'minlangan talabalarga alohida g'amxo'rlik qilish, ularga tegishli tartibda ijtimoiy, ma'naviy va psixologik yordam berish choralarini ko'rish;

iste'dodli va iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni respublika va xalqaro tanlovlarga maqsadli tayyorlash, iqtidorli talabalarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomdor davlat stipendiyalariga tavsiya etish;

o'zlashtirish ko'rsatgichi past hamda tarbiyasi og'ir talabalar bilan tizimli ishlarni olib borish;

shuningdek, talabalar turar joylarida, ijaradagi va xususiy xonadonlarda yashovchi talabalarning yashash manzillariga muntazam borib u yerda yaratilgan sharoitlami o'rganib borish va ularni yaxshilash bo'yicha mutasaddilarga taklif kiritish;

talaba tomonidan odob-axloq qoidalari va boshqa qoidalar buzilganda unga nisbatan chora ko'rish to'g'risida Universitet va fakultet rahbariyatiga taklif kiritish;

Universitet, shahar va respublika doirasida tashkil etiladigan tadbirlarga talabalarni tartib va intizom, uyushqoqlik bilan olib kelish va ishtiroklarini ta'minlash;

talabaning axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlarini va u haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni yorituvchi yig'ma jild hamda "Axborot va murabbiylik soati" darsi va ish rejasidagi turli xil tadbirlarni qayd qilish jurnalini elektron tutish va yuritib borish.

**b) O'quv va o'quv-uslubiy sohada:**

talabalaning darslarga qatnashishlari bo'yicha kunlik davomatini yuritib borish, ular tomonidan sababsiz qoldirilgan dars mashg'ulotlari yuzasidan tegishli choralar ko'rish bo'yicha fakultet dekanatiga bildirgi kiritib borish;

talabalarning darslarni o‘zlashtirish darajalarini nazorat qilib borish, innovatsion ta’lim texnologiyalari va o‘quv-uslubiy materiallar, axborot-resurslari bilan ta’minlashga hamda ushbu manbalardan keng va unumli foydalanishga ko‘maklashish;

talaba haqida fakultet dekanatiga tushayotgan ma’lumot asosida guruh sardori bilan birgalikda professor-o‘qituvchilar bilan suhbatlashish, o‘zlashtirishi past talabaga yordamlashib, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan talabani unga biriktirish, qo‘shimcha darslar va maslahatlar tashkil etish, fanlar bo‘yicha akademik qarzdorliklarni belgilangan muddatda topshirishini nazorat qilish.

**v) Ilm-fan, innovatsiya va tadqiqotlar sohasida:**

iste’dodli va iqtidorli talabalarni aniqlash va ularrni maqsadli tayyorlash hamda ilmiy to‘garaklar, innovatsion startaplarga va klublarga jalb etish;

talabalarni turli ilmiy tadbirlar: konferensiyalar, seminarlar, respublika va xalqaro miqyosdagi olimpiadalar va forumlarda ishtirok etishlarini uyushtirish;

talabalarning xalqaro grantlar va loyihalarda qatnashishlariga ko‘mak berish va rag‘batlantirish, ilm-fan hamda tadqiqotlarda faol ishtirok etayotgan talabalarni ta’lim muassasasi rahbariyati va jamoat tashkilotlari tomonidan rag‘batlantirilishini tashkil etish;

talabalarga ilmiy maqolalar yozishda maslahatlar berish va chop etishda yordam ko‘rsatish, ularni kelgusida ilmiy faoliyat olib borishlariga yaqindan yordam berish.

## III bob. Tyutorlarning huquq va majburiyatlari

8. **Tyutorlar quyidagi huquqlarga ega:**

o‘ziga biriktirilgan talabalarning darslarini, talaba davomati va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish;

TTJga joylashishlari uchun talabalarga e’lon berish va ular tomonidan tegishli hujjatlarni yig‘ib taqdim etish hamda tashkil etiladigan komissiya yig‘ilishida talabalarning ishtirokini ta’minlash;

talabaning talabalar turar joyidan chiqarilishiga rozilik berish, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash bo‘yicha takliflar kiritish;

o‘quv-tarbiyaviy sohalardagi muammolarini bartaraf etish bo‘yicha fakultet dekanati bilan hamkorlikda ishlash;

madaniy-ma’rifiy tadbirlar va sport musobaqalarini o‘tkazishda dekanat, rektorat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish;

talabaga tavsifnoma va akademik ta’til berish masalasini hal etishda ishtirok etish, talaba haqidagi fakultetda mavjud ma’lumotlardan to‘la foydalanish;

talabaning darslariga qatnashishi, o‘zlashtirish va ijtimoiy hayotidagi roliga oid takliflarni fakultet dekanatiga kiritish, talabaning rag‘batlantirilishi yoki

jazolanishi va maxsus stipendiyalarga loyiqligi bo‘yicha xulosa berish;

Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti, Kasaba uyushmasi va Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi bilan birgalikda talaba bilimini odilona baholashni nazorat qilish;

Tyutor qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

9. **Tyutorlar quyidagi majburiyatlarni bajaradilar:**

talabalarning ma’naviy, axloqiy va kasbiy tarbiyasi bilan muntazam shug‘ullanish;

o‘z mahorati, kasbiy tayyorgarligi, nazariy bilim va ish tajribasini doimiy ravishda oshirib borish;

talabalarning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilish;

ta’lim muassasasida professor-o‘qituvchilar tomonidan talabaning obro‘-e’tibori va nufuziga dog‘ tushirishning oldini olish;

talabalarning psixologik va o‘ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan shaxslarni o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e’tibor qaratish;

tyutorlik guruhlaridagi talabalarning ma’lumotlar bazasini yaratish va fakultetga taqdim etish;

talabalar haqidagi shaxsiy ma’lumotlarni ularning roziligisiz oshkor qilmaslik;

tyutorlik guruhidagi talabalar turar joyi, ijara, yaqin qarindoshi va o‘z uyida istiqomat qiluvchi talabalarning yashash sharoitidan doimiy xabardor bo‘lish;

talabalarning to‘garak va klublarga a’zoligini maksimal darajada ta’minlash va ularning ushbu to‘garaklar faoliyatidagi ishtiroki monitoringini yuritish;

o‘ziga biriktirilgan akademik guruhlardagi talabalar bilan muntazam (guruhlarda va yakka tartibda) suhbatlar o‘tkazib borish;

talabalar va ularning ota-onasini yoki boshqa qonuniy vakillarini oliy ta’lim muassasasi ustavi, ichki tartib, odob-axloq hamda TTJdan foydalanish qoidalari va ta’lim faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlar bilan tanishtirishi;

akademik guruhlarda dars jadvali asosida har haftada bir marta “Axborot va murabbilik soati”, “Soft skills” treninglari o‘tilishini tashkil etish hamda uning samaradorligini ta’minlash;

talabalar bilan bog‘liq favqulodda muammoli vaziyatlar yuzasidan zudlik bilan fakultet dekaniga axborot berish;

talabalar o‘rtasida huquqbuzarlik, jinoyatchilik va diniy ekstremizmning oldini olish bo‘yicha soha mutaxassislari ishtirokida muntazam tushuntirish ishlarini olib borish;

alkogol, tamaki va psixotrop vositalar iste'mol qilishning zararli oqibatlari xususida doimiy profilaktik ishlarni tashkil etish;

moddiy yordamga muhtoj talabalarni aniqlash, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha fakultet dekaniga taklif kiritish.

Tyutor o'z faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari, Universitet ichki tartib va odob-axloq qoidalari hamda ushbu nizomga muvofiq boshqa majburiyatlami bajaradi.

## IV bob. Tyutorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish

10. Tyutorlik faoliyati bu Universitet pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatidagi muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

11. Ta'lim muassasasida tyutorlar faoliyati belgilangan shtat ajratilgan holda individual mehnat shartnomasini tuzish orqali amalga oshiriladi.

12. Tyutorlar faoliyati xodimlaming asosiy mehnat faoliyati bo'lib, bunda tyutorlik uchun bazaviy oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat talab etiladi.

Tyutorlik faoliyatiga jalb qilingan xodimlarga oylik maoshi stajor o'qituvchi ish haqi me'yorlari doirasida belgilanishi mumkin.

13. Tyutorlarga talabalar biriktirilganda ularning soni qoida tariqasida 120-150 nafar atrofida bo'ladi.

14. Tyutorlar faoliyati tegishliligi bo'yicha fakultet dekanlari tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi.

15. Tyutorlar o'z faoliyatida Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori oldida hisobdordirlar.

16. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor tomonidan tyutorlar faoliyatiga oid hisobotlar har chorakda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markaziga elektron taqdim etib boriladi.

17. Tyutorlar o'ziga biriktirilgan akademik guruhlarda talabalar bilan samarali ish olib borishiga qarab oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qo'shimcha ravishda moddiy rag'batlantirib borilishi mumkin.

## V bob. Tyutorlarga qo'yiladigan talablar va ularni lavozimiga tayinlash

18. a) Tyutorlar oliy ma'lumotga ega bo'lishi (ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega shaxslarga afzalliklar beriladi);

b) 25 yoshdan kichik, 55 yoshdan (ayollar uchun 50 yosh) katta bo'lmasligi;

v) pedagogik va psixologik, o'quv-tarbiyaviy, o'quv-uslubiy, ta'lim tizimida boshqaruv faoliyati bilan shug'ullangan, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda 2 yildan kam bo'lmagan (2 yildan ko'p bo'lganlarga ustuvorlik beriladi) mehnat stajiga ega bo'lishi;

g) qonunchilik hujjatlariga muvofiq ta’lim berish huquqidan mahrum etilmagan bo‘lishi;

d) namunaviy shaxsiy fazilatlarga - intellekt, madaniyatli, ijodiy, xushmuomalalik, vatanparvarlik va tashabbuskorlik qobiliyatlariga ega bo‘lishi, mas’uliyat hissi, mustaqil ish tutish xususiyatlariga ega bo‘lishi zarur.

Tyutorlikka nomzodlar Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektorlar tomonidan tajribali, talabalar orasida katta hurmat va e’tibor qozongan, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar uslubiyati va amaliyotini chuqur anglab yetgan, pedagogik va psixologik bilim va tajribaga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchi va boshqa xodimlar orasidan tanlanib, oliy ta’lim muassasasiga ishga qabul qilish bo‘yicha komissiyasiga taqdim etiladi.

19. Ishga qabul qilish komissiya xulosasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

## VI bob. Tyutorlar ishini tashkil etish

20. Tyutorlar o‘quv yili uchun tasdiqlangan ish rejasi (mutasaddi idora va tashkilotlar bilan tuzilgan hamkorlik rejalari) asosida ma’naviy-axloqiy tarbiya va boshqa turdagi ishlarini olib boradilar. Reja bo‘yicha ishlar elektron shakldagi tyutorlik jurnalida qayd etib boriladi.

21. Tyutorlar olib borilgan ma'naviy-axloqiy tarbiya va boshqa turdagi ishlari natijalari bo‘yicha ma’lumotlami fakultet dekanining Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosariga har oyda va o‘quv semestri yakunida esa yakuniy hisobot shaklida berib boradilar.

## VII bob. Tyutorlikni bekor qilish asoslari

22. Tyutorlik quyidagi hollarda bekor qilinadi:

o‘z xohishiga ko‘ra;

amaldagi qonun hujjatlari, Universitet ichki tartib va odob-axloq qoidalari hamda ushbu nizom talablariga zid faoliyat bilan shug‘ullanganda;

tyutor o‘ziga biriktirilgan talabalar tomonidan tyutorni almashtirish to‘g‘risida murojaat qilinganda (agar asosli bo‘lsa).

23. Tyutorlar talabalar, fakultet dekanlari murojaatiga muvofiq, Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektorning xulosasiga asosan ta’lim muassasasi rektori (filial direktori) buyrug‘i bilan bekor qilinadi.

24. Tyutorlik faoliyatini amalga oshirishda quyidagilar taqiqlanadi:

zo‘ravonlik, diniy ekstremizm va davlat tuzumi, mamlakatning tinchligi va xavfsizligi, uning aholisiga qarshi qaratilgan boshqa harakatlarni targ‘ibot qilish;

kamsituvchi munosabatda bo‘lish, shu jumladan jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyi va boshqa belgilar bilan

kamsitish;

talabalarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish;

tyutorlikka aloqasi bo‘lmagan faoliyatni olib borish.

## VIII bob. Yakuniy qoida

25. Tyutorlar o‘ziga yuklatilgan vazifalami bajarish uchun shaxsan javobgardir.

26. Nizom talablarini buzgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

(OTM nomi)

______________________________________________

______________________________________________

___________________________________ guruhlar tyutori

__________________________________________ning

# TYUTOR JURNALI

**(elektron yuritil adi)**

*(Ushbu jurnal oliy ta’lim muassasasida*
*faoliyat yuritayotgan barcha tyutorlar uchun mo‘ljallangan)*

Toshkent – 2021

**TUZUVCHILAR:**
S.K.Xudoyqulov, iqtisod fanlari doktori, professor;
A.A.Amonov, mustaqil tadqiqotchi;
U.U.Sattarov, mustaqil tadqiqotchi.

## Hurmatli tyutor!

Ilm-fan jadal taraqqiy etayotganligi tufayli turli fan sohalarida erishilgan yutuqlar tez yangilanib bormoqda. Bilim o‘sish, taraqqiyot omilidir, uni vaqt talabi darajasida texnika o‘sishidan bir necha barobar tez yangilab borish kerak. Shuning uchun yangicha fikrlaydigan, zamonaviy kadrlarni tayyorlashda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish davr ehtiyojidan kelib chiqmoqda.

Bugungi kunda yoshlarning ma’naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi murabbiy oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Yosh avlod tarbiyasi o‘ta dolzarb masala bo‘lib, u ta’lim-tarbiyada uzviylik, qat’iylik va talabchanlik, ishlashning zamonaviy, ta’sirchan usul va vositalarini talab etadi.

Oliy ta’lim muassasasi “Tyutor jurnali” tyutorlarga ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda amaliy yordam berib, quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

talabalar va ularning ota-onalari haqida to‘liq ma’lumot;

faoliyat mazmuni.

O‘ylaymizki, ushbu jurnal Siz tyutorlarga o‘z pedagogik faoliyatingizni amalga oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

**M U N D A R I J A**

1.1. Talabalar to‘g‘risida 2021/2022-o‘quv yili uchun ma’lumot.................
1.2. Talabalarning ota-onalari haqida ma’lumot..........................................
1.3. Talabalarning ijtimoiy holati haqidagi ma’lumot..................................
1.4. Talabalarning ijodiy salohiyati haqida ma’lumot..................................
1.5. Tyutorlik guruhi haqida qisqacha ma’lumot..........................................
1.6. Guruh faollari haqida ma’lumot...........................................................
1.7. Tyutorning 2021/2022-o‘quv yilidagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejasi....
1.8. “Ma’naviyat soati”da o‘tkaziladigan 2021/2022-o‘quv yili uchun mavzular rejasi.......................................................................................................
1.9. Birinchi yarim yillik uchun kalendar setka.............................................
1.10. Ikkinchi yarim yillik uchun kalendar setka…………………................
1.11. Talabalarning 2021/2022-o‘quv yili 1-semestrida o‘zlashtirish qaydnomasi...........................................................................................................
1.12. Talabalarning 2021/2022-o‘quv yili 2-semestrida o‘zlashtirish qaydnomasi...........................................................................................................
1.13. Talabalarning darslarga qatnashishi haqida ma’lumotlar (2021/2022-o‘quv yili)........................................................................................
1.14. Ta’lim muassasasi rahbariyati va jamoat tashkilotlari haqida ma’lumot.........................................................................................................
1.15. Ta’lim muassasasidagi Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti yetakchilari haqida ma’lumot.........................................................................
1.16. Ta’lim muassasasida faoliyat yuritadigan to‘garak va klublar ro‘yxati..............................................................................................................
1.17. Tyutor ishining nazorati ......................................................................

## 1.1. TALABALAR TO‘G‘RISIDA 2021/2022-O‘QUV YILI UCHUN MA’LUMOT

| № | Talabaning ismi va sharifi | Tug‘ilgan yili | Millati | Pasport ma’lumoti | Uy manzili, telefoni |
|---|---|---|---|---|---|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| 1. | | | | | |
| 2. | | | | | |
| 3. | | | | | |
| 4. | | | | | |
| 5. | | | | | |
| 6. | | | | | |
| 7. | | | | | |
| 8. | | | | | |
| 9. | | | | | |
| 10. | | | | | |
| 11. | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 12. | | | | | |
| 13. | | | | | |
| 14. | | | | | |
| 15. | | | | | |
| 16. | | | | | |
| 17. | | | | | |
| 18. | | | | | |
| 19. | | | | | |
| 20. | | | | | |
| 21. | | | | | |
| 22. | | | | | |

## 1.2. TALABALARNING OTA-ONALARI HAQIDA MA’LUMOT

| № | Talabaning ismi va sharifi | Ota-onasining ismi va sharifi | Uy manzili va telefoni | Muloqot vositalari |
|---|---|---|---|---|
| | 1 | 2 | 3 | 4 |
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |
| 4. | | | | |
| 5. | | | | |
| 6. | | | | |
| 7. | | | | |
| 8. | | | | |
| 9. | | | | |
| 10. | | | | |
| 11. | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 12. | | | | |
| 13. | | | | |
| 14. | | | | |
| 15. | | | | |
| 16. | | | | |
| 17. | | | | |
| 18. | | | | |
| 19. | | | | |
| 20. | | | | |
| 21. | | | | |
| 22. | | | | |

## 1.3. TALABALARNING IJTIMOIY HOLATI HAQIDAGI MA'LUMOT

| № | Talabaning ismi va sharifi | Oilaviy holati | Ko'p farzandli oila farzandi | Kam ta'minlangan oila farzandi | Noqobil oila farzandi | Chin yetim | Ota-onasi nafaqadorlar | Ota-onasi nogironligi borlar | Nogironligi bo'lgan talaba |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 |
| 1. | | | | | | | | | |
| 2. | | | | | | | | | |
| 3. | | | | | | | | | |
| 4. | | | | | | | | | |
| 5. | | | | | | | | | |
| 6. | | | | | | | | | |
| 7. | | | | | | | | | |
| 8. | | | | | | | | | |
| 9. | | | | | | | | | |
| 10. | | | | | | | | | |
| 11. | | | | | | | | | |
| 12. | | | | | | | | | |
| 13. | | | | | | | | | |
| 14. | | | | | | | | | |
| 15. | | | | | | | | | |
| 16. | | | | | | | | | |
| 17. | | | | | | | | | |
| 18. | | | | | | | | | |
| 19. | | | | | | | | | |
| 20. | | | | | | | | | |
| 21. | | | | | | | | | |
| 22. | | | | | | | | | |

*Izoh: Kerakli jadval ustunida belgi qo'yiladi*

## 1.4. TALABALARNING IJODIY SALOHIYATI HAQIDA MA’LUMOT

| № | Talabaning ismi va sharifi | Musiqaviy yo‘nalish | Tashkilotchilik qobiliyati | San’at va adabiyot sohasi | Sportdagi qiziqishlari | Raqqosalik va boshqa sohalardagi qobiliyati |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1. | | | | | | |
| 2. | | | | | | |
| 3. | | | | | | |
| 4. | | | | | | |
| 5. | | | | | | |
| 6. | | | | | | |
| 7. | | | | | | |
| 8. | | | | | | |
| 9. | | | | | | |
| 10. | | | | | | |
| 11. | | | | | | |
| 12. | | | | | | |
| 13. | | | | | | |
| 14. | | | | | | |
| 15. | | | | | | |
| 16. | | | | | | |
| 17. | | | | | | |
| 18. | | | | | | |
| 19. | | | | | | |
| 20. | | | | | | |
| 21. | | | | | | |
| 22. | | | | | | |

*Izoh: Kerakli jadval ustunida belgi qo‘yiladi*

## 1.5. TYUTORLIK GURUHI HAQIDA QISQACHA MA’LUMOT

| | 1-semestr | 2-semestr |
|---|---|---|
| Talabalar soni | | |
| Qizlar soni | | |
| O‘g‘il bolalar soni | | |
| Tug‘ilgan yili | ____________ yil ____ ta talaba<br>____________ yil ____ ta talaba<br>____________ yil ____ ta talaba | |
| “A’lo” bahoda o‘qiydiganlar soni | | |
| “Yaxshi” bahoda o‘qiydiganlar soni | | |
| “Qoniqarli” bahoda o‘qiydiganlar soni | | |
| Fanlarni o‘zlashtira olmaydiganlar soni | | |
| Muammoli talabalar soni | | |

## 1.6. GURUH FAOLLARI HAQIDA MA’LUMOT

| | | |
|---|---|---|
| 1. | Guruh sardori | |
| 2. | “Yoshlar ittifoqi” BT yetakchisi | |
| 3. | Kasaba uyushmasi raisi | |
| 4. | O‘quv jarayoniga mas’ul | |
| 5. | Ma’naviy-ma’rifiy ishlarga mas’ul | |
| 6 | Sport ishlari bo‘yicha mas’ul | |

*Izoh: Guruh faollari umumiy guruh yig‘ilishida saylanadilar.*

## 1.7. TYUTORNING 2021/2022-O‘QUV YILIDAGI MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR REJASI

| № | Bajariladigan ish va tadbirlar nomi, mazmuni | Muddati |
|---|---|---|
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |
| | | |

## 1.8. “MA’NAVIYAT SOATI”DA O‘TKAZILADIGAN 2021/2022-O‘QUV YILI UCHUN MAVZULAR REJASI

| № | O‘tkaziladigan tadbirlarning nomlari | Amalga oshirish muddati | Amalga oshiruvchi mas’ul xodimlar | Bajari-lishi haqida yo‘qlama |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

## 1.9. BIRINCHI YARIM YILLIK UCHUN KALENDAR SETKA

| **Hafta** | **Sentabr** | **Oktabr** | **Noyabr** | **Dekabr** | **Yanvar** |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | | |
| 2 | | | | | |
| 3 | | | | | |
| 4 | | | | | |

## 1.10. IKKINCHI YARIM YILLIK UCHUN KALENDAR SETKA

| Hafta | Fevral | Mart | Aprel | May | Iyun |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | | |
| 2 | | | | | |
| 3 | | | | | |
| 4 | | | | | |

*Izoh: Oliy ta'lim muassasasi miqyosidagi tadbirlarni qizil rangda yozing; yo'nalishlar bo'yicha yashil, guruh miqyosida ko'k rangda yozing.*

## 1.11. TALABALARNING 2021/2022-O‘QUV YILI 1-SEMESTRIDA O‘ZLASHTIRISH QAYDNOMASI

| № | Talabaning familiyasi va ismi | O‘quv rejasi bo‘yicha fanlar | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |

## 1.12. TALABALARNING 2021/2022-O‘QUV YILI 2-SEMESTRIDA O‘ZLASHTIRISH QAYDNOMASI

| № | Talabaning familiyasi va ismi | O‘quv rejasi bo‘yicha fanlar | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |
| | | | | | | | | | | | |

## 1.13. TALABALARNING DARSLARGA QATNASHISHI HAQIDA MA'LUMOTLAR (2021/2022-O'QUV YILI)

| T/r | Talabaning familiyasi, ismi va otasining ismi | Qoldirgan soatlari (oyda, necha soat) | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | IX | X | XI | XII | I | II | 1-semestrda jami qoldirgan soatlari | III | IV | V | VI | 2-semestrda jami qoldirgan soatlari | Jami |
| 1. | | | | | | | | | | | | | | |
| 2. | | | | | | | | | | | | | | |
| 3. | | | | | | | | | | | | | | |
| 4. | | | | | | | | | | | | | | |
| 5. | | | | | | | | | | | | | | |
| 6. | | | | | | | | | | | | | | |
| 7. | | | | | | | | | | | | | | |
| 8. | | | | | | | | | | | | | | |
| 9. | | | | | | | | | | | | | | |
| 10. | | | | | | | | | | | | | | |
| 11. | | | | | | | | | | | | | | |
| 12. | | | | | | | | | | | | | | |
| 13. | | | | | | | | | | | | | | |
| 14. | | | | | | | | | | | | | | |
| 15. | | | | | | | | | | | | | | |
| 16. | | | | | | | | | | | | | | |
| 17. | | | | | | | | | | | | | | |
| 18. | | | | | | | | | | | | | | |
| 19. | | | | | | | | | | | | | | |
| 20. | | | | | | | | | | | | | | |
| 21. | | | | | | | | | | | | | | |
| 22. | | | | | | | | | | | | | | |

## 1.14. OLIY TA’LIM MUASSASASI RAHBARIYATI VA JAMOAT TASHKILOTLARI HAQIDA MA’LUMOT

| № | Lavozim | Ismi va sharifi | Aloqa vositasi |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

## 1.15. TA’LIM MUASSASASI YOSHLAR ITTIFOQI YETAKCHILARI HAQIDA MA’LUMOT

| № | “Yoshlar ittifoqi” BT yetakchilarining ismi va sharifi | Yo‘nalishi | Guruhi | Aloqa vositasi |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

## 1.16. TA’LIM MUASSASASIDA FAOLIYAT YURITADIGAN TO‘GARAK VA KLUBLAR RO‘YXATI

| № | To‘garak va klubning nomi | To‘garak va klub rahbari | Aloqa vositalari |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

## 1.17. TYUTOR ISHINING NAZORATI 2021/2022-O‘QUV YILI

| Oy,kun | Tekshiruvchi (nazoratchi)ning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi | Takliflar, kamchiliklar haqida ma’lumot | Imzo |
|---|---|---|---|
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

Qaydlar uchun